

**OZIQ-OVQAT SANOATIDA QO‘LLANILADIGAN ISTIQBOLLI DORIVOR
O‘SIMLIKLARNING BIOLOGIYASI VA AHAMIYATI**

**Ro‘ziyeva Nazira Ochilovna,
Qodirova Shahribonu Normudovna,
Ermatova Munajat Qosimovna**

*Samarqand davlat veterinariyameditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali,*

Aytmuratova Zuxra Rasbergenovna
Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti,

Orinbaev Kóketay Ong‘arbay uli
Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Аннотация. Mazkur maqolada oziq-ovqat sanoatida qo‘llanilayotgan istiqbolli dorivor o‘simliklar, ularning biologik faol moddalari hamda funksional mahsulotlar ishlab chiqarishdagi ahamiyati yoritilgan. Dorivor o‘simliklardan tabiiy qo‘shimcha, antioksidant, konservant va biologik faol komponent sifatida foydalanish masalalari tahlil qilingan. Inson va hayvonlarning yashashi hamda hayot kechirish jarayonida o‘simliklar asosiy rol o‘ynaydi. Chunki ular oziq ovqat, em-xashak, dori darmon, kiyim kechak, havo hamda juda ko‘pchilik moddalarning tabiiy manbalari hisoblanadi. Ma'lumki, o‘simliklar o‘zlarining u yoki bu organlarida hayot uchun zarur bo‘lgan turli organik moddalarni, ularning birikmalarini hamda mineral tuzlarni saqlaydi. Inson shu sababli, o‘simliklarning har xil organlaridan turli maqsadlar uchun foydalanib kelmoqda. Ular madaniy o‘simlik turlari va navlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki tevarak-atrofida o‘sayotgan yovvoyi o‘simlik turlarining ichki sirlarini bilib, o‘rganib, ulardan uzoq yillar davomida foydalanib kelmoqdalar.

Калит so‘zlar: flora, ziravor o‘simliklar, organizm, Gazandao‘t, (qichitqio‘t), sekresiya, globalgap, logistik, fitonsid.

**БИОЛОГИЯ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕРСПЕКТИВНЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ,
ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**Рузиева Назира Очиловна,
Кодирова Шахрибону Нормудовна,
Эрматова Муножат Косимовна**

*Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины,
Ташкентский филиал Университета животноводства и биотехнологии.*

Айтмуратова Зухра Расbergenовна
assistant Каракалпакского государственного университета,

Орынбаев Кокетай Онгарбай ули
Студентка Каракалпакского государственного университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются перспективные лекарственные растения, используемые в пищевой промышленности, содержащиеся в них биологически активные вещества и их значение в производстве функциональных продуктов. Анализируются вопросы использования лекарственных растений в качестве натуральных добавок, антиоксидантов, консервантов и биологически активных компонентов. Растения играют ключевую роль в выживании и жизни человека и животных. Они являются природными

источниками пищи, кормов, лекарств, одежды, воздуха и многих других веществ. Известно, что растения хранят различные органические вещества, их соединения и минеральные соли, необходимые для жизни, в тех или иных своих органах. По этой причине люди используют различные органы растений для различных целей. Они не ограничиваются культурными видами и сортами растений, а изучают внутренние секреты диких растений, произрастающих вокруг них, и используют их на протяжении многих лет.

Ключевые слова: флора, травы, организм, Газандаот (крапива), выделение, глобальный разрыв, логистика, фитонцид.

BIOLOGY AND IMPORTANCE OF PROMISING MEDICINAL PLANTS USED IN THE FOOD INDUSTRY

***Ruziyeva Nazira Ochilovna,
Qodirova Shahrbonu Normudovna
Ermatova Munajat Qosimovna***

Samarkand State University of Veterinary Medicine, Tashkent Branch of the University of Animal Husbandry and Biotechnology.

Aytmuratova Zukhra Rasbergenovna
Assistant Professor, Karakalpak State University,

Orinbaev Koketay Ongarbay uli
Student, Karakalpak State University

Annotation. This article discusses promising medicinal plants used in the food industry, their biologically active substances and their importance in the production of functional products. The issues of using medicinal plants as natural additives, antioxidants, preservatives and biologically active components are analyzed. Plants play a key role in the survival and livelihood of humans and animals. Because they are natural sources of food, fodder, medicine, clothing, air, and many other substances. It is known that plants store various organic substances, their compounds, and mineral salts necessary for life in one or another of their organs. For this reason, humans have been using various organs of plants for various purposes. They are not limited to cultivated plant species and varieties, but have been learning and studying the inner secrets of wild plant species growing around them and using them for many years.

Key words: flora, herbs, organism, Gazandao't, (nettle), secretion, globalgap, logistic, fitonsid.

Kirish. O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bo'ladigan o'simliklarga bo'lgan talab yuqori bo'lganligi uchun, barcha ekinlardan yuqori hosil olish talab etiladi. Oziq-ovqat bo'ladigan o'simliklarni xomligicha hamda har xil taomlar tayyorlab iste'mol qilinadi. Hozirgi kunda respublikamiz florasida uchraydigan 4137 tur o'simliklardan faqat 300 turi oziq-ovqat va ziravor o'simliklar sifatida ishlatilmoqda. Ulardan yovvoyi holda uchraydigan yong'oq, olma, olcha, pista ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda ma'lum darajada foyda keltiradi. O'simliklar turli xildagi uglevodlar, oqsillar, vitaminlar, xushbo'y xidli va yoqimli ta'mli boshqa moddalarga boy. O'simlik mahsulotlari mineral moddalar (natriy, kaliy, kalsiy, magniy, fosfor, temir va bosh.) va mikroelementlar (yod, kobalt va bosh.) manbai bo'lib, ular organizm hayot faoliyatining asosida yotuvchi biologik va fiziologik jarayonlarning borishida muhim rol o'ynaydi. Mineral moddalar va mikroelementlar hujayra protoplazmasining doimiy tarkibiy qismi hisoblanadi, uning fiziologik holatini ta'minlaydi, organizmdagi osmotik bosimni va kislota asosli balansni ta'minlaydi.

O'simlik mahsulotida fitonsidlar, oksidlovchi fermentlar, efir moylari ham bo'ladi. O'simlik mahsuloti bilan birga odam organizmiga turli xushbo'y moddalar ham kiradi. Ular odatda katta oziqabop qiymatga ega emas, ammo ovqatga o'ziga xos ta'm va hid berish uchun ishlatiladi. Bu moddalar nafaqat ishtahani ochadi, balki ovqat hazm qilish bezlarining sekresiya ajratishini ham kuchaytiradi. O'simlik mahsuloti tarkibidagi efir moylari oshqozon ichak traktidagi bijg'ish jarayonlarini pasaytiradi, moddalar almashinuvini, oshqozon va ichakdagi hazm bezlari xamda so'lak bezlari faoliyatini me'yorga solib turadi. Xushbo'y (aromatik) hidli moddalar fitonsid ajratishi tufayli bakterisid xususiyatiga ega (piyoz, sarimsoq piyoz, sholg'om va bosh.).



1-rasm qichitqio't

Bu mahsulotlar vitaminlarga ham boyligi sababli sog'lom odamlarga ham bemorlarga ham birdek foydalidir. O'simliklar, ayniqsa, bahor oylarida vitaminlarga boy bo'ladi.

Masalan, gazandao't (qichitqio't) bahor oylarida hatto apelsin va limondan ham ko'proq miqdorda askorbin kislotaga to'laydi, karotin miqdori esa xuddi sabzidagidek bo'ladi. Gazanda o'tning 20 grammi organizmning K vitaminiga bo'lgan sutkalik ehtiyojini to'liq qoplaydi. O'simlik mahsulotlari xom xolatda yoki ishlov berilgandan keyin iste'mol qilinadi, kam miqdorda qo'shimcha yoki ziravor o'rnida ham ishlatiladi. Xom xolatda iste'mol qilinganda ularning tarkibidagi vitaminlar, fitonsidlar, oksidlovchi fermentlar ko'proq saqlanadi va foydasi yuqori bo'ladi. Juda ko'p oziq ovqat o'simliklari dorivor, efirmoyli, ziravor va boshqa maqsadlarda ham ishlatiladi. Eng keng ishlatiladigan oziq ovqat o'simliklariga bug'doydoshlar oilasi (bug'doy, arpa, suli, javdar, makkajo'xori va b.), burchoqdoshlar oilasi (burchoq, no'xat, mosh, loviya, eryong'oq va b.), qovoqdoshlar oilasi (qovoq, tarvuz, qovun, xandalak, bodring va b.), ituzumdoshlar oilasi (kartoshka, pomidor, baqlajon va b.) hamda boshqa oilalarga mansub o'simliklar kiradi.

Adabiyotlar tahlili

Davlatning eng ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim jihatlaridan biri bu aholining sifatli oziq-ovqat o'simliklariga bo'lgan talabini o'z vaqtida qondirishdan iboratdir. Aholini oziq-ovqat o'simliklari bilan talab etilgan hajmlarda va zarur bo'lgan sifatlarda ta'minlash kompleks va murakkab vazifa bo'lib, hokimiyat organlari, biznes va fuqarolarning turli faoliyat yo'nalishlarini qamrab oladi. Ushbu faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri oziq-ovqat o'simliklarini eksport va import qilish hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi tez buziluvchan mahsulotlarga taalluqlidir. Ushbu o'ziga xoslik oziq-ovqat o'simliklarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash, iste'molchilarga etkazishda, shuningdek eksport-import qilishda ham o'ziga xos tadqiqot uslublari va

yondashuvlarini talab qiladi. Oziq-ovqat o‘simliklarini aholining talablari darajasida yetkazib berishda ushbu mahsulotlarni sanoat asosida qayta ishlash va ularni yetkazib berish muammolari bilan etakchi xorijiy va mamlakatimiz olimlar tomonidan tizimli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan: A.N.Anishenko hududlar kesimida oziq-ovqat xavfsizligi muammolari, A.M.Jondarev xo‘jalik tizimlarini iqtisodiy xavfsizligi, A.A.Kaygorodsev Qozog‘iston respublikasini iqtisodiy va oziqovqat xavfsizligi, E.N.Krilatix, V.Z.Mazlova integrasiya sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi va boshqalarning asarlarida mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, shu jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini global, milliy va hududiy darajada baholash va ta‘minlashning nazariy- uslubiy va amaliy jihatlari batafsil yoritilgan. “Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash shartlari, usullari, xo‘l hamda qayta ishlangan mahsulotlar ichki va tashqi bozorlar marketingi” nomli qo‘llanmada mamlakat iqtisodiyotida eksportning ahamiyati va uni amalga oshirish bosqichlari, meva-sabzavot mahsulotlarni saqlash va qayta ishlashning hozirgi holati, ularni saqlash va qayta ishlashni tashkil etish, shuningdek saqlash va qayta ishlash usullari, texnika va texnologiyalar, ularning afzalliklari, milliy va halqaro “GLOBALGAP” standarti mohiyati va ahamiyati, uni joriy etish choralari keltirilgan. Oziq-ovqat sanoatida dorivor o‘simliklardan foydalanish ekologik toza va funksional mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Rayhon, zanjabil, qora sedana, yalpiz va aloe kabi o‘simliklar istiqbolli manba hisoblanadi. Kelajakda ularni chuqur ilmiy o‘rganish va innovatsion texnologiyalar asosida qayta ishlash dolzarb vazifadir. Dorivor o‘simliklar xomashyosidan foydalanishning asosiy usullari: ichki va tashqi foydalanish uchun dori vositalarini ishlab chiqarish. O‘zbekistonda eng keng tarqalgan dorivor o‘simliklar **rayhon (bazilik)**, **kashnich (koriander)**, **arpabodiyon**, **yalpiz**, **seberga** hisoblanadi.



kashnich (koriander),



rayhon (bazilik)

Yovvoyi o‘simliklarni tekisliklarda va tog‘larda topish mumkin, shuningdek, bozorlar va dorixonalarda sotib olish mumkin.

Xulosa.

O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari eksportining ahamiyati, jahon meva-sabzavotlar bozorida O‘zbekistonning tutgan o‘rni, mevasabzavot mahsulotlari eksport qilishning me‘yoriy-huquqiy

asoslari, meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga ta'sir qiluvchi omillar, qishloq xo'jaligida logistik yondashuvlar, milliy va xalqaro "GLOBALGAP" standarti mohiyati va ahamiyati, uni joriy etish choralari q'ollanilmoida. Ushbu tadqiqotlarda meva-sabzavotlarni yetishtirish samaradorligini oshirish, ularning mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan bo'lsada, hozirgi modernizasiyalash sharoitida, oziq-ovqat mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlash uslublari va texnologiyalari o'rganilmagan. Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati umumiy iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi va iqtisodiyotning barqaror o'sishi, kapitalni kengaytirilgan qayta yaratish, savdo va sanoat raqobatbardoshligini oshirish, davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning daromadlarini oshirishga yo'naltirilgan turli iqtisodiy va siyosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda O'zbekiston dunyoning 170 dan ortiq mamlakatlari bilan tashqi savdoni amalga oshirmoqda. Ularni shartli ravishda 2 ta guruhga bo'lish mumkin: MDH mamlakatlari va uzoq xorij mamlakatlari. Tashqi iqtisodiy faoliyat doirasida tovarlarning oldi-sotdisi bo'yicha barqaror munosabatlarning shakllanishi nafaqat davlat byudjetiga valyuta tushishiga, balki ishlab chiqariladigan mahsulotning jahon bozorlarida raqobatbardoshligining ortishiga ham ko'maklashadi. Shuning uchun eksport va import masalalari tashqi iqtisodiy faoliyatning tayanch jihatlari hisoblanadi. Keyingi yillarda Hukumat tomonidan o'tkazilgan, eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirishga yo'naltirilgan islohotlar va umuman tashqi savdoning muvozanatiga erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dorivor o'tlar tarkibida dorivor xususiyatga ega bo'lgan kamida bitta faol modda mavjud. Ushbu modda yoki moddalar ko'pincha o'simlikning to'qimalari va qismlari bo'ylab notekis taqsimlanadi. Shuning uchun, dorivor o'tlarni yig'ishda siz foydali elementlarning qayerda to'planganligini va o'simlik rivojlanishining qaysi davrida ularning konsentratsiyasi maksimal ekanligini bilishingiz kerak. Dorivor o'simliklardan foydalanish oziq-ovqat mahsulotlarining biologik qiymatini oshiradi. Shuningdek, sintetik konservantlar o'rnini bosuvchi tabiiy modda sifatida istiqbolli hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar o'simlik ekstraktlarini samarali ajratib olish va ularni sanoatda qo'llash imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/18/5483/1594-son, 31.07.2018 y.; 06/19/5892/ 4134-son, 11.12.2019 y.
2. Hojimatov Q. O'zbekistonning vitaminli o'simliklari. - Toshkent, "Fan", 1973.
3. Hojimatov Q.H., Yo'ldoshev K.Y., Shog'ulomov U.Sh., Hojimatov O.Q. Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham. Toshkent, "O'zbekiston", 1995 y. -142 b. 4. Po'latov Sarvar Mustafoyevich., Ro'ziyeva Nazira Ochilovna., Ganiyev Sanjar Ernazarovich. "Atrof-muhitni muhofaza etish, o'zbekistonning istiqbolli dorivor va o'rmon o'simliklarini yetishtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish". O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. 2 (20) 2025.
5. O'.E.Xo'janazarov. N.O.Ro'ziyeva. "The Teaching Methodology of The Medicinal Plants of Cupressaceae Family". European International Journal of Pedagogics. – Germany, 2025. - Vol. 05. - Issue 05. - P. 251-256.(№43. IF: 12.56). <https://journalseeker.researchbib.com/view/issn./2751-000X>.
4. D.T.Bakiyev.O'.E.Xo'janazarov. N.O.Ro'ziyeva "Istiqbolli dorivor o'simliklar ayrim turlarining foydali xususiyatlari hamda ularni dars jarayonida o'qitish metodikasi". Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali (elektron jurnal). – Toshkent, 2025. № 11-son.- B. 1580-1587.

5. M. Y. Yusupov, M. H. Sagdullayev(2022) “Ekologik xavfsizlik va barqaror taraqqiyot asoslari” - Toshkent, “Universitet” nashriyoti. 174-bet.
6. S.Po‘latov, N.Ro‘ziyeva., O‘.Xo‘janazarov. “O‘zbekistonning istiqbolli dorivor o‘simliklari”, //O‘quv qo‘llanma 2025-yil. Toshkent. 132-bet.
7. G.T. Ro‘ziyeva. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash. O‘zMU xabarlari. Toshkent, 2022. 183-185 b .
8. N.O.Ro‘ziyeva “Oliy ta’lim muassasalarida o‘zbekistonning dorivor o‘simliklari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning metodik xususiyatlari”. “Elektron ta’lim” jurnali“E-learning”.- Navoiy, December, 2025, N04, Vol. 6ISSN2181-1199.B.105-112.
9. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun Po‘latov S.M. Darslik. 2023.
10. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi Po‘latov S.M., Abdiyev F.R., Shukurov X.M., Xalikov.darslik 2023.
11. Ro‘ziyeva Nazira Ochilovna, Qodirova Shahribonu Normurodovna. “Innovatsion ta’lim resurslari vositasida oliy ta’lim tashkilotlarida o‘zbekistonning dorivor o‘simliklari fanini o‘qitish metodikasini rivojlantirishning nazariy asoslari” maqola. Qishloq xo‘jaligida ilmiy yangiliklar – ilmiy, amaliy jurnali. 2025-yil,4-son.dekabr.